

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI O'QUV TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL QATNASHISHNI TASHKIL ETISH

Do'lliyeva Xayrigul

*TerDPI maktabgacha ta'lism yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Abdumajitova Sayohat Abduqosimovna**

*TerDPI maktabgacha ta'lism metodikasi kafedrasini o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Oilani maktabgacha ta'lism sohasiga jalb qilish, ushbu maqsadga erishish, maktabgacha ta'lism tashkiloti va ota-onalar faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonida faol qatnashishni tashkil etishning nazariy –amaliy asoslarini yaratish hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishini ta'minlash mexanizmlarining asoslanganligi, ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishini ta'minlash xususiyatlari aniqlanganligi, ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishini ta'minlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilganligi, ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** *Ta'lism, tarbiya, ota-ona, maktabgacha ta'lism tashkiloti, bolalar, hamkorlik, tarbiyachi, mashg'ulot, uslub, yondashuv, tamoyillar savodxonlik, madaniyat*

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lism tizimini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish uchun O'zbekiston Respublikasi —Ta'lism to'g'risidagi— qonunining 8-moddasida: —Maktabgacha ta'lism bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lism 6-7yoshgacha oila, bolalar MTTda va mulk shaklidan qa'tiy nazar boshqa ta'lism tashkilotlarida olib boriladi deyilgan.

Maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni mifik ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lism-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lism dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lism tizmini takomillashtirish, uni jahon ta'lism standartlari talablari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, bolalari kamolga erishgan davlatlar taraqqiyotida bu omil o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim Konsepsiysi maktabgacha ta'limdagi muammolarni hal etish bilan shug 'ullanadigan barcha tashkilotlarni ularning bir - biri bilan hamkorlik va muloqotni amalga oshirgan holda muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi.

Bolalarni o'qitish va rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilo si va oilaning alohida xususiyatlarni hamkorlikda tadb iq etish jarayoniga ota onalarni jalg etish;

Maktabgacha va boshlang'ich ta 'limning uzviyligi, jamoatchilik va oilaviy ta'limning o 'zaro hamkorligi;

Hududiy xususiyatlarni hisobga olish;

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi faoliyati, uning kasbiy tayyorgalikni differensiallashni tatbiq etish alohida o 'rin egallaydi. Bu borada pedagogik kengash va oliy o 'quv yurtlarining oldiga mutaxassis kadrlarni sifatli tayyorlash vazifasi yukla tiladi.

Konsepsiya - ta 'lim tashkilot sida kirish jarayonida ularni kasbiy yaroqligini aniqlash jarayonini tashkil etish kasbiy tay yorgarlik sifatini oshirishdagi muhim vosita ekanligi uqtiriladi. Maktabgacha ta 'lim tizimi uchun kadrlarni mukammal tayyorlashni turli -tumanligiga ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni turlilagini ochish imkoniyatini beradi.

Bolalarni ilk qo 'llab -quvvatlash va psixologik - jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish vasiylik bo 'limi tibbiy, maktabgacha, mакtab, maktabdan tashqari, psixologik, ij timoiy va yuridik xizmat tashkilotlari bilan hamkorlik va koordinatsiya ishlarini tash kil etish lozim.

Maktabgacha yoshdagи bolalar ta'lim- tarbiyasiga oid izlanishlar jahon pedagogikasi va psixologiyasi ilmida ko'plab o'rganilgan. Barkamol avlod tarbiyasi hamma davrlarda ham davlat va jamiyatning ustuvor masalalaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu masala sharq mutafakkirlari, O 'rta Osiyo allomalari va zamonaviy pedagog olimlarning ham asarlari da bosh g 'oya hisoblanadi. Shaxs va jamiyat munosabatlari, ma'naviyat va axloqiy tarbiya masalalari, shaxsni shakllantirishda ijtimoiy munosabatlarning o'rni Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Jaloliddin Rumiy, Abdulla Avloniyarning pedagogik g'oyalari va qarashlarida o'z aksini topgan.

Respublikamiz pedagog olimlarining mazkur sohada amalga oshirgan tadqiqotlari e'tiborga loyiqdир. P.Yusupova, F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, D.Abdurahimova, X.B.Tulenova, D.R.Babayeva, G.X.Jumasheva, X.I.Kasimova, M.SH.Rasulova, M.A.Solihova, K.S.Shodiyeva, SH.A.Sodiqova A.Q.Munavvarov, M. I. Sanginov, O.Musurmonova, H.Uzoqov, O.To'rayeva va boshqalar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining mazmuni, maktabgacha yoshdagи bolalarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan tarbiyalash, ularda muomala madaniyati va nutq ko\_nikmalarini hosil qilish, bolalarni mакtab ta'limiga tayyorlash muammolari tahlil etilgan.

Bugungi kunda yangi ta'limgiz tizimi faoliyatini takomillashtirish va barqarorlashtirish hamda fuqarolarning bilim olish huquqlarini ta'minlashda rivojlangan xorij davlatlarining tajribasi bilan bir vaqtida Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan ham foydalanish taqozo etiladi.

Shaxsning qaror topishining eng muhim vazifasi bolada axloq talablariga javob beradigan e'tiqod va ideallar tarkib toptirishdir. Bola shaxsning shakllanishdagi bundan keyingi jarayon shundan iboratki, unda yuzaga kelgan ahloqiy e'tiqod va ideallar sistemasi ya'ni uning ma'naviy ong xukmronlik qiluvchi omildan uning ijtimoiy faolligini belgilab beruvchi omilga aylanadi. Biz o'rganayotgan mavzu bo'yicha turli soha vakillari o'z yo'nalishlari asosida izlanishlar olib borganlar. Ijtimoiy-tarixiy va ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o'zbek oilasining hayoti, undagi o'zaro munosabatlari, uning urfodatlari, an'analari va qadriyatları, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlari jiddiy ilmiy muammolar sifatida XX asrning 60-70 yillardan e'tiboran o'rganila boshlangan. Respublikamiz pedagog olimlarining mazkur sohada amalga oshirgan tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. A.Q.Munavvarov, M. I. Sanginov, O.Musurmonova, H.Uzoqov, O.To'rayeva va boshqalar tadqiqotlarida o'zbek oilasining o'ziga xosligi, tarbiyaviy imkoniyatlari va shartsharoitlari, o'zaro munosabatlari shakllanishining ma'naviy asoslarini keng o'rganganlar. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov, Ye.A.Morshinina, E.G'oziev, V.M.Karimova, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, S.A.Oxunjonova, A.Shojalilov va boshqlar ham o'z tadqiqotlarida oilada farzand tarbiyasi masalalriga alohida e'tibor bergenlar. Respublikamizda ko'p yillar davomida ta'limgiz tashkilotlari va oila hamkorligi, xususan maktabgacha ta'limgiz tashkiloti va ota-onalar hamkorligi borasidagi hamkorlik ishlari qoniqarsiz darajaga kelib qolgan edi.

Respublikamizda ko'p yillar davomida ta'limgiz tashkilotlari va oila hamkorligi, xususan maktabgacha ta'limgiz tashkiloti va ota-onalar hamkorligi borasidagi hamkorlik ishlari qoniqarsiz darajaga kelib qolgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 28-yanvar kuni mamlakatimiz Parlamentiga murojaatnomasining —2020 yilgi ustuvor yo'nalishlar to'g'risidaili gi ma'rurasida shunday ta'kidladi: Ular uchta – ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot. Bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'limgiz bilan qamrab olish darajasini 60% ga yetkazish rejalashtirilmoqda. Yangi maktablar, shu jumladan, xususiy maktablarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash davom ettiriladi.

Yuqorida bayon qilingan dolzarb muammolar haqiqatdan ham, Davlat talablarining bosh tamoyili bo'lgan — bolaning noyobligi, —bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi, —bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy rolini anglagan holda, MTT, oila, tarbiyachi-pedagoglar hamda ota-onalarning bevosita, doimiy va samarali hamkorligini talab etadi.

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar.

Shuning uchun ham oilada sog 'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umum davlat ahamiyatga molik masaladir.

Chunki, ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o 'zgarishlar, ya'ni undagi yetuk va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda 2018-yil 18-iyunda —O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablar||, 2019 yil 22 oktyabrda —O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun , 2019-yil 8-may kuni PF-4312 «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-4312- son farmoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, mакtab ta'limiga tayyorlash bo'yicha qator vazifalarni belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan nazariy materiallardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullarini nazariy jihatdan chuqur o'rgangan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonida faol qatnashishni tashkil etishning innovatsion metodikasini ishlab chiqish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. STEAM-ТЕХНОЛОГИЯ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ С Абдумажитова - Innovations in Technology and Science Education, 2023
2. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA STEAM TEKNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH JARAYONI AS Abduqosimovna - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
3. ИГРА ДЛЯ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ С ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРОЙ ТЕХНОЛОГИЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ М Жовлиева, СА Абдумажитова - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
4. PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING AS Abdukasimovna - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
5. МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДОШКОЛЬНИКОВ СА Абдумажитова - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
6. STEAM-THE IMPORTANCE OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN BASED ON EDUCATIONAL TECHNOLOGY SA Abdumajitova - Results of National Scientific Research International ..., 2022
7. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION. SA Abdumajitova - ... Academic Research Journal Impact Factor 7.4, 2022